

**BIOLOGIYA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI
TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI****Otabekova Sayyora Suyunboyevna***Jizzax shahar 19-maktab biologiya fani o‘qituvchisi**E-mail: sayyoraotabekova@gmail.com**Tel: +998882955774*

Annotatsiya: *Maqolada biologiya darslarida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning ahamiyati va samarali yo‘llari keltirilgan. Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida o‘qituvchilarda qanday ko‘nikmalar bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, mustaqil fikrlash, o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘zaro aloqa, laboratoriya mashg‘uloti, didaktik tamoyillar, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Аннотация: *В статье рассматриваются значение и эффективные способы организации лабораторных занятий на уроках биологии. Представлена информация о навыках, которыми должны обладать преподаватели при проведении лабораторных занятий.*

Ключевые слова: *интеграция, самостоятельное мышление, учитель, ученик, взаимодействие, лабораторное занятие, дидактические принципы, знания, умения, навыки.*

Abstract: *This article discusses the importance and effective methods of organizing laboratory classes in biology lessons. It provides information on the skills that teachers should possess when conducting laboratory sessions.*

Keywords: *integration, independent thinking, teacher, student, interaction, laboratory work, didactic principles, knowledge, skills, competence.*

Biologiya hayotni o‘rgatadigan fan ekanligini hisobga olib, o‘quvchilarga mavzularni to‘g‘ri tushuntirgan holda yetkazib berish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish har bir fan o‘qituvchisining zimmasiga qo‘yilgan vazifadir. Biologiyaga oid bilimlarni o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni katta. Bu fan barcha jonli yoki jonsiz tabiatda uchraydigan jarayonlar, qonuniyatlar haqida ma’lumot beradi. Shu sababli ham o‘quvchilardagi tabiatni sevish, atrofdagi jarayonlarni tushunish, tabiatdagi ne’matlardan o‘rinli, unumli foydalanish, tabiiy boyliklarni himoya qilish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Har bir pedagog o‘z fanini qiziqarli va tushunarli o‘tkazish uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanishga harakat qilishi zarur. Bunday o‘quv jarayonlarda biologiya

fani o‘qituvchilari o‘z mavzusiga aloqador plakatlar, ta’lim resurslari, elektron video darsliklar, multimedialardan tashqari o‘quv-laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ekskursiyalar tashkil etish kabi vazifalarni bajarishi ahamiyatlidir. Shu bilan birgalikda laboratoriya xonalariga javobgarlik, xonani jihozlash, yil davomida boyitib borish, samarali foydalanish, hamisha tayyor holda bo‘lishini ta’minlash ham asosiy vazifalardan biri.

Amaliy mashg‘ulotlar keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotlar ma’ruza darslaridan farq qilib, o‘rganilgan bilimlar aniqlashtiriladi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Ma’ruza darslarida esa bilimlar nazariy jihatdan bayon qilinadi. O‘quvchilar bilimini sinash uchun amaliy mashg‘ulotlardan foydalansa bo‘ladi.

Nazariy tushunchalarni mustahkamlash, o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda ko‘rsata olish jarayonini shakllantirish, bilimlarni yanada kengaytirish, ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish laboratoriya mashg‘ulotlarining vazifasidir. Bu turdagi mashg‘ulotlar mavzuning eng muhim qismini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Biologiya fanidagi laboratoriya mashg‘ulotlarda ikki tomonlama aloqa o‘rnatiladi. O‘quvchilar o‘zaro fikr almashishadi, o‘z qarashlarini ifodalashadi. Darslarda o‘qituvchi muammoning muhokamasini tashkil etib, o‘quvchilarni boshqarib boradi. Bunda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga aniq va qisqa ma’lumotlar asosida bajariladigan amallarni bayon etishidir. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltira olishi, bajarilayotgan ishlar ketma-ketligini, mohiyatini aniq bilishi zarur. O‘qituvchi dars oxirida bajarilgan laboratoriya mashg‘uloti yuzasidan o‘quvchilarga hisobot yozishni vazifa sifatida berishi kerak.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining boshqa darslardan farqi shundaki, mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mustaqil ish bajarishi, tajriba o‘tkazishi va ijodiy yondashuvni o‘rganishidir.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining didaktik tamoyillari:

- mashg‘ulotlarni rejalashtirisha olish va o‘tkaza olish;
- mashg‘ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o‘quvchilarda bilimlarni chuqurlashtirishga va amaliyot bilan bog‘lashga qiziqish uyg‘otish;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlashi va ish natijasini xulosalashiga imkon yaratish;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlash, olingan natijalarni xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish.

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida biologiya o‘qituvchilari laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali o‘tishlari uchun quyidagi ko‘nikmalar shakllanishi zarur:

- laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish;
- ta’lim mazmunini o’zlashtirish asosida yangi va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish;
- zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish;
- fanga oid elektron axborot vositalarini bilish va foydalanish;
- elektron axborot vositalarini yarata olish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish.

Laboratoriya darslarida faqat o’zbek tilidagi jarayonni davom ettirmasdan, balki boshqa tillarga integratsiyalash orqali ham samarali natijaga erishsa bo’ladi. Masalan: ingliz tiliga bog’langan holda laboratoriya mashg’ulotlarini o’tadigan bo’lsak, avvalo, o’qituvchi darsdan oldinroq mashg’ulotlarga oid bo’lgan atamalarining inglizcha tarjimasini bilib kelishlarini o’quvchilarga vazifa sifatida berishi lozim. Keyinchalik esa dars jarayonida ingliz tilida suhbatlashgan holda vazifalar bajarish, laboratoriya tajribasi berilgan video tomosha qilish, xulosalarni ifodalash kabi vazifalar beriladi.

Laboratoriya darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro Ta’lim Kengashi (ISTE) ma’lumotlariga ko’ra, dars jarayonida texnologiyadan foydalanish o’quvchilarning natijalarini yaxshilaydi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, motivatsiyasini oshiradi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanadigan o’quvchilar an’anaviy o’rganish usullaridan foydalanadiganlarga qaraganda test natijalari yuqori darajada bo’lishi aniqlangan. Biologiya o’qituvchilari laboratoriya darslarining moddiy-texnik bazasini to’g’ri tashkil etishi, darslarda kerak bo’ladigan jihozlar va preparatlarni saqlashi, ulardan samarali foydalanishi sababli o’quvchilarda laboratoriya mashg’ulotlarining mazmunini shakllantirib, rivojlanishiga sababchi bo’ladi. Shuni inobatga olgan holda har bir pedagog yuqori saviyada darslarga tayyorlanishi lozim.

Interfaol doskalar, planshet va turli qurilmalardan foydalanish o’quvchilar va o’qituvchilarga qiziqarli va dinamik darslar yaratish imkonini beradi. O’qituvchilar interaktiv ilovalar va o’yinlardan foydalanishlari mumkin. Moslashuvchan ta’lim platformalari yordamida o’qituvchilar o’quvchilarning bilim olish jarayonlarini kuzatishlari va ularga shaxsiy topshiriqlar, ko’rsatmalar berishlari mumkin. Raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish orqali esa internetda ma’lumot qidirish, ofis ilovalari bilan ishlash, multimedia loyihalarini yaratish kabi qulayliklarga erishiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, biologiya o’qituvchilari darslarini o’tish jarayonida faqatgina fani yuzasidan egallagan bilim, ko’nikma, malakalari kamlik qiladi. Chunki hozirgi globallashgan davrda xorijiy tillarni bilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali, to’g’ri foydalanish o’qituvchilar uchun asosiy talab. O’quvchilarda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish davr talabi bo’lib, bunda amaliy

va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni katta ekanini esda tutish lozim. Dars jarayonini fan yangiliklari, yangi tadqiqotlarning natijalari bilan boyitish, o‘quvchilarda ham mana shu ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev A.M. Biologiya darslarida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish. Barqaror taraqqiyot va rivojlanish masalalari konferensiya materiallari. 33-35-bet.
2. Maktabda biologiya. Ma’naviy-ma’rifiy ta’limiy jurnal.
3. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. Metodik qo‘llanma. O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent, 2002.
4. Vikipediya ma’lumotlari.
5. www.ziyo.Net.uz ma’lumotlari.